

# IJODKORLIKDA NOSTANDART TAFAKKUR TARBIYASI MUAMMOSI VA TAMOYILLARI

*Tog'ayev Xo'jamberdi, Ismoilov To'ychi Jabborovich*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchilari, Jizzax,*

*O'zbekiston*

*e-mail:ismoilov\_t@jspi.uz*

**Annotatsiya:** *Maqolada yosh avlodlar tarbiyasida intellektual va ijodiy fazilatlarni shakllantirish nostandart fikriy tafakkurni rivojlantirish misolida bayon qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Ijodkorlik, jarayon, tosh qurollari, nostandart tafakkur, intellektual, shakllantirish, dolzarb muammo, tashkil qilish.*

\*\*\*

**Аннотация:** *В статье излагается формирование интеллектуальные и творческие способности при воспитание молодых поколений на примере у них развитие нестандартного обраного мышление*

**Ключевая слова:** *творчество, процесс, каменные орудия, нестандартное мышление, интеллектуал, формирование, актуальные проблема, организация*

Yosh avlodlar tarbiyasida intellektual va ijodkorlik fazilatlarni shakllantirish haqida qadimgi yunon donishmandi Suqrotning bundan 25 asr muqaddam o'rtaga tashlagan "O'zligingni bil, shunda sen olamni ham bila olasan!" degan mashhur shiori hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shuningdek, bobokalonimiz (asli Shahrisabzlik bobosi ko'chib keyinchalik Hindistonda yashagan) Mirza Bedil ham huddi shunga o'xshash fikrni izhor qilib:

Ashyo – nazarimiz olug'uvchi ko'zgu,

Asmo – zikri ertak tinglamoqdir bu.

Barchasi insondan qochirar uzoq,

Asli inson bo'lmoq o'zni bilmoq-ku! degan edi.

Nostandart tafakkur - insoniyat necha ming yillik tadrijiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog'liq hosil qila borgan va erishgan oliy aqliy va ruhiy ne'matidir. Kishilikning oddiy tosh qurollari va bitiklaridan tortib bugungi kunda yaratayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari ana shu nostandart tafakkurning oliy ne'mati mahsulidir. Shu ma'noda, ijodkorlikda nostandart tafakkur tarbiyasi - har bir davrning kechiktirib bo'lmas dolzarb muammosidir.

Xo'sh, nostandart tafakkur tarbiyasi (aqliy mehnat madaniyati)ni to'g'ri tashkil qilish deganda nimani tushunish lozim.

Avvalo shuni aytish kerakki, aqliy mehnat madaniyati bashariyat tarixiy rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan idroq etish usullari tizimini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra mehnatni ilmiy tashkil qilish tamoyil va me'yorlari aniq hamda

qat'iy asosda ishlab chiqilgan, bu faktlarni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va matematik tahlil qilish kabi bir qancha metodlarni ko'zda tutadi, ammo bu degani aqliy mehnat madaniyati ilmiy ma'lumotlar asosida tashkil etilmas, bilish, idrok qilish faoliyati muvofiq ravishda olib borilmas ekanda, degani emas. Bu borada xotira, idrok va mushohada faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, materialni aniq idrok etib o'zlashtirish, to'g'ri xulosa chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Aqliy mehnat usullari haqida buyuk kishilar-olimlar, yozuvchilar tarjimai holini o'rganish, filosofiya, mantiq, psixologiya, pedagogika va fiziologiya sohalariga oid ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mustaqil o'qish orqali ko'plab bilimlarga ega bo'lish mumkin.

Shu ma'noda ijodkorlikda tafakkur idroki tarbiyasi aqliy faoliyatning muvofiq usullarini egallash tarzi sifatida ijtimoiy hayot, ilm-fan va shaxs tajribalarini o'zlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirishni ko'zda tutadi. Ko'p yillik shaxsiy pedagogik tajribalarimizdan ma'lumki, qaysidir o'quvchi yoki talaba kitob yoki o'quv materialini tez o'zlashtiradi. Aksincha boshqa birov esa uni sust o'zlashtiradi. Bu o'zlashtirishning ikki xilligi siri aslida nostandart tafakkur (aqliy) mehnati tarbiyasi bilan band ongimizning ko'zga ko'rinmas qatlarida yashiringan. Bu sirlarning kalitini esa nostandart tafakkurning muttasil mashaqqatli mehnatidan izlamoq o'rinli.

Psixologik nuqtai nazardan yondoshilganda umumiy holda nostandart tafakkur mehnati materialni qabul qilish, o'zlashtirish, qayta ishlash va bilimlarni namoyon qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ammo har bir kishining o'ziga xos va betakrorligini unutmash lozim. Chunki, egallagan bilimdagi o'zaro farqlar, ko'nikma hosil qilish, yodda saqlash, fikr yuritish usullari, iroda xususiyatlaridagi ayirmalar shaxs nostandart tafakkuri mehnatining o'ziga xos uslubiga so'zsiz o'z muhrini bosadi.

Haqiqatdan ham, kishi nazdicha, go'yo u o'z nostandart tafakkuri va xulq atvori (o'zligi)ni juda yaxshi biladigandek tuyuladi. Bordi-yu biror shaxs o'zini-o'zi chetdan kuzatishga musharraf bo'lganda edi, u o'zini-o'zi taniy olmagan, ba'zi nostandart tafakkuriy fikr-mulohazalari va qiliqlarini bema'ni deb topgan bo'lar edi.

Zero, bunday chuqurroq o'ylab qaralsa, hozirgi qurilishda ishlayotgan mutaxassislar nostandart tafakkuri, qadimgi Misr fir'avnlari uchun hayratamuz hisoblangan, bugungi kunda ham qurilish texnologiyasi aniqligi va ilmiylik salohiyati bilan bahslarga sababchi bo'lib turgan ehromlar qurgan qullarning nostandart tafakkuridan yaxshimi yoki yomonmi degan savolga ko'pchilik na yaxshi na yomon deb javob bera oladi.

Aytilganlardan ko'rinadiki, "o'zlik"ni anglash kishi nostandart tafakkurini belgilovchi barcha fikriy ichki (iste'dod, talant, qobiliyat, zakovat,

mulohazakorlik, valiylik, layoqat, iroda, xotira, donishmandlik, bilim, ko'nikma, malaka va xokazo) va tashqi (sinchkovlik, qiziquvchanlik, ajablanish, sababi va oqibatini bilishga shahd qilish, maqsad sari intiluvchanlik, tashabbuskorlik, talabchanlik, jo'shqinlik, qaynash, shahdi baland bo'lish va boshqalar) xislat hamda fazilatlar majmuasi bo'lib, "olamni bilish", ya'ni daholikka erishishning bosh me'zoni hisoblanadi.

So'z yuritilgan, "o'zlikni anglash" tushunchasi va nostandart tafakkuri idrok mohiyatining, "olamni bilish", daholikka erishishning bosh mezoni ekanligini sharq allomalarining bu xususdagi fikrlari talqini orqali yoritishga harakat qilamiz.

Shaxsning nostandart tafakkuri to'g'risida sharq adabiyotining yorqin siymolaridan biri, sharq she'riyati yoxid quyoshlari qatoridan joy olgan shoiri Abu Maoniy (ma'nolar otasi) deb nom qozongan zabardast alloma Mirza Bedil quyidagi ajoyib fikrni aytadi:

*"Har narsaga kim etibdi aql,*

*Undan afzalsan, buni yaxshi bil.*

*Dunyo mevasin shirinkori sen,*

*Hammasidan kam hosildori sen.*

*Qay tarafga kim uchsa hayoling,*

*Sen etsang parvoz etar majoling".*

ya'ni, u inson "o'zligi" ni jilvalantiradigan ko'zgu dil ruhiy (she'rda bu hayol deb ifodalangan) kuchlari va nostandart tafakkuriy idrok ekanligi, buyuk va etuk insonning mushohadalari garchi moddiy abadiylik bag'rida o'tkinchi bo'lsada, uning har narsaga (olamni ham bila olishga) qodirligi, u qoldirgan nostandart tafakkur mevalari umumbashariy abadiyligiga dahldor ekanligini teran ifodalab bergan edi.

Uning fikricha, insonning "o'zligi" ni dil bag'rida yashiringan asl rux (tafakkur)ini, uning ichki manzaralari va hayoliy tovlanishlarini qay darajada ro'yobga chiqara olganligi bilan baholanadi. Buni shaxs "nostandart tafakkuri" ga berilgan ta'rif deyish o'rinli bo'ladi.

Mazkur aytilganlarni chuqur tahlil qilganda, inson nostandart tafakkuri va undagi bor imkoniyatlardan hozircha to'liq foydalanayapmiz deb aytib bo'lmaydi. Oddiy qilib aytganda, tabiat bizlarga shunday bir ulkan nostandart tafakkur boyligini in'om qilganki, bu nasliy va tabiiy boyluk va ne'matdan to'liq foydalanib, uni oqilona ishga solishda hamma vaqt ham joylarda faollik ko'rsatilayapti deb ayta olmaymiz.

Shu o'rinda yana o'tmishimizga murojaat qilamiz. Qadimgi g'or odamlarining nostandart tafakkuri nimalarga ishlatilar edi.? Hech nimaga. Chunki cho'qmor yasash uchun hech qanday matematik hisobning hojati ham yo'q edi. Nostandart tafakkur idroki o'z vaqti soatini kutib chuqur uyquga g'arq edi. Yaqin o'tmishda elektr aloqalari yo'qligi oqibatida biron xabarni etkazish uchun choparlar oylab yo'l yurganini, hozirgi kundagi bu ishni lahzalarda hal qilish

imkoniyatimizga qiyoslash bilan, kelajak nostandart tafakkuri orqali bugungi kunimizga nazar tashlashga egamiz deb faraz qilgan kishida, hozir ham shundoq atrofimizda o'z yechimini kutib uyquda yotgan imkoniyatlar qanchadan qancha ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxsning nostandart tafakkurini charxlash va rivojlantirish uchun ma'lum o'zligini bilishga imkon beradigan tartibga tushirilgan uzviy va kishini har doim olga yetaklab, zavq-shavq uyg'otuvchi muhit talab qilinadi. Shu ma'noda aytish mumkinki, insonning "o'zligi" (o'z ichki tug'yoni) bilan olga intilishga bo'lgan mayl va harakatini hech qanday tashqi majburiy buyruqbozlikka almashtirib bo'lmaydi. Shunday ekan, har bir kishi o'zlikni anglashning yuqoridagi tushunchasini o'ziga burchiy mas'uliyat sifatida qabul qilib, unga nostandart tafakkurni rivojlantirishning bosh g'oyaviy quroli deb qarashi lozim. Binobarin o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yib, uning amalga oshishini chin dildan istagan har bir inson, avvalo o'z nostandart tafakkuriy idrokini o'zi tarbiyalab rivojlantirishga erishishi zarur. Shundagina u nostandart tafakkuriy idrokning eng cho'ng va purqudrat cho'qqisi bo'lgan daholikka erishib, Suqrot aytgandek "Olam" ni ham bila oladi.

Har tomonlama barkamol intellektual va ijodiy fazilatlarga ega inson bo'lish har birimizdan har bir harakatda dil nigohini o'zligimiz quyoshiga qaratishimiz, Ruhiiy nostandart tafakkur idroki ildizlaridan qayta ko'karishimizni, bundan o'zga chinakam va najot yo'qligini chuqur his etishni taqozo etadi. Bu haqda hazrati Navoiy:

*Olimi kim ilmi erdi bemaal,                      O'ldilar yuz hasratu armon bila,*  
*E g'aniykim moliga buxl erdi yor.              Elga bo'ldi ishlaridin e'tibor*

shunday ta'kidlagan edi [1]. Shoir olimlardan va barcha kasb-hunar egalaridan hush intellektual va ijodiy fazilatli bo'lishni talab qiladi. Bunday fazilatlarga ega bo'lmagan va ilmiga amal qilmaydigan olim bir umr hasrat bilan kun kechiradi – deydi [1].

Navoiy dunyoviy fanlarning hammasini tizimli o'qish va o'rganish kerakligini, ijodiy fazilatlarning har bir tarmog'ini kishi zakovatiga amaliy xizmat ettirish lozimligini qayd qiladi. Shu sababli bilimni egallashni ajoyib fazilat deb hisoblaydi.

U fizika va amaliy mexanikani inson hayotidagi ahamiyatini ta'kidlab, bunday deydi:

*Va gar xikmatga bo'lsa iltifoting,*  
*Ki bo'lsin Nux umricha hayoting.*

Alisher Navoiy bu bilan kishilarda zakovatiy va ijodkorlik fazilatlarida

nostandart tafakkur idroki tarbiyasining rolini alohida ta'kidlab, ijodkorlik bilan shug'ullangan kishini hayotda nomi o'chmasligi va umri uzoq bo'lishini targ'ib qiladi.

Bunday vazifalarning nechog'lik bajarilishi avvalo barkamol avlodni tarbiyalashda intellektual va ijodiy fazilatlarni shakllantirish pedagogik mexanizmlarining qay darajada takomillashganligiga va mos holda yosh avlodning o'zligini anglashi hamda tafakkur idrokini tarbiyalash tamoyillarining mazmunini bilish va samarali qo'llashni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu tamoyillar mazmuniga tavsif berib o'tamiz.

Didaktik tamoyillar:

*Sinchkovlik tamoyili* - bu tamoyil, o'quv jarayonida va umuman har qanday faoliyatda ijodkorning o'zi uchun tushunarsiz bo'lgan noxush voqea, xodisa yoki tushunchaga befarq qaramasdan, nega shunday? nima qilmoq kerak? degan savol nazari bilan qarashni ko'zda tutadi.

*Ko'rgazmalilik tamoyili* - bu tamoyil ijodkorlik masalasini shakllantirishda zarur bo'lgan qurilma, mashina, mexanizm yoki boshqa vositalarining nuqsonlarini natural o'zida tekshirib ko'rishni nazarda tutadi.

*Ilmiylik tamoyili* - bu tamoyil, oliy o'quv yurtlari ta'lim tizimida eng muhim pedagogik tamoyil hisoblanib, o'zida:

a) zamonaviy texnika rivojlanishi darajasini namoyon etuvchi nazariy va amaliy bilimlar tizimini;

b) fan qonuniyatlarining ob'ektivligi harakterini va ulardan insonlar faoliyatida amalda foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatishni;

v) o'rganilayotgan hodisa, faktlarning mohiyatini aniqlashda dialektika umumiy tamoyillarini qo'llashni;

g) har bir ilmiy fanning o'ziga xos o'rganish metodlaridan foydalanish;

d) ta'limning genetik yo'lidan to'g'ri va keng foydalanishlarini mujassam holda ifodalaydi.

Ilmiylik tamoyili talabalarda faqat ilm-fanda oldindan ma'lum bilimlarni o'zlashtirish bilan kifoyalanib qolmasdan, ularni eng keyingi fan yutuqlari bilan qurollantirish va xatto ularning rivojlanish istiqbollari haqida bahs, mulohazalar yuritishlarni nazarda tutadi.

Buning uchun albatta ilmiy rahbarning o'zi ham ma'lum yetarli bilimga ega bo'lishi zarurligi tamoyildagi asosiy masala hisoblanadi.

*Tushunarlilik tamoyili* - bu tamoyil, talabalarining o'quv jarayonida olgan bilimlarini ijodkorlik faoliyatida qo'llay olishi mumkinligini nazarda tutadi va o'quv jarayonidagi tushunchalarni tafakkur idroki tarbiyasi faoliyatida qayta takrorlashni mutlaqo rad etadi. Talabalarining ijodkorlik faoliyati ham tushunarli va ham tadqiqotiy tavsifda bo'lishi tamoyilning muhim sharti hisoblanadi. Tamoyilga

ko'ra ijodkorlik masalasi yechimi oddiy bo'lsa, talaba zerikadi, o'ta murakkab bo'lsa, uni uddalashi uchun katta qiyinchilik va ko'p vaqt talab qiladi, unda talabning ishdan ko'ngli soviydi. Shu ma'noda, bu tamoyil tafakkur idroki tarbiyasi faoliyatini ratsional ijodkorlik masalalaridan iborat qilib boshqarishni taqozo etadi.

*Ishlab chiqarish bilan bog'langanligi tamoyili* - bu tamoyil, tafakkur idroki tarbiyasi faoliyati ijodkorlik masalalari rejasi salmog'ida ko'proq ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish, fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini aks ettirishni ko'zda tutadi. Bu tafakkur idroki tarbiyasi faoliyatining maqsadlaridan biri sifatida ham, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va uquvlarni oshirishning muhim omili sifatida ham xizmat qiladi.

*Mustaqillik va faollik tamoyili* - bu tamoyil tafakkur idroki tarbiyasi faoliyatida o'ta muhim hisoblanadi. Mustaqillikning muhim tashkil etuvchisi fikrlashning yuqori darajada bo'lishini ta'minlash uchun, ijodkorlik masalalarini asta-sekin murakkablashtirib borishni taqozo etadi. Talabning mustaqilligi va faolligi o'zaro uzviy bog'liq tushunchadir. Bu bog'lanishda faollik talabning ijodiy ish bilan shug'ullanishga bo'lgan qizg'in ishtiyoqini ifodalasa, mustaqillik esa faollikning yuqori pog'onasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, faollik mustaqil fikrlashning birinchi bosqichi degan xulosaga kelinadi. D.N.Bogoyavlenskiy ko'rsatishi bo'yicha "Muammoli vaziyat" vujudga keltirilganda fikrlash eng katta faollikka ega bo'ladi. Demak, mustaqillik va faollik tamoyillari tafakkur idroki tarbiyasi faoliyatida ijodkorlik masalalarining muammoli bo'lishi hisobiga talabalarning faolligi hamda mustaqilligini oshirishni nazarda tutadi.

*Alohidalik va pog'onalilik tamoyili* - tafakkur idroki tarbiyasi faoliyatida sezilarli salmoqqa ega. Buni ijodkorlik bilan shug'ullanayotgan har bir qatnashuvchi bilimi, fikrlash layoqati, qobiliyati, uddaburonligi, uquvi kabi sifatlar mutlaqo bir-biriga mos kelmasligi va mos holda ularga berilayotgan ijodkorlik masalasi ham alohida murakkablikda va asta-sekin o'sib borishini taqozo qilishi bilan izohlash mumkin. Demak, intellektual va ijodkorlik fazilatlarini rivojlantirish masalalarini har bir shaxs uchun uning saviyasiga qarab pog'onali tarzda (oddiy, o'rta, murakkab, o'ta murakkab) shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda bunday vazifalarning nechog'lik bajarilishi avvalo barkamol avlodni tarbiyalashda intellektual va ijodiy fazilatlarini shakllantirish pedagogik mexanizmlarining qay darajada takomillashganligiga va mos holda yosh avlodning o'zligini anglashi hamda tafakkur idrokini tarbiyalash tamoyillari mazmunini bilish va samarali qo'llashni taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. "Maxbub ul-Qulub" Toshkent. 1939 yil. 54-bet

2. Tog'aeв X., Tolipov O'. "Sinchkovlik niholi yoxud iqtidorni tarbiyalashning muhim jihati" Ma'rifat. 2002 yil. 14 iyun.

3. Ismoilov T. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini ijodkorlik faoliyatga tayyorlash" Uzluksiz ta'lim №3. 2008 yil.

4.Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низамов, Ш. Ш., & Суюнов, У. Д. (2019). Педагогические основы совершенствования творческой личности студентов. *Поволжский педагогический поиск*, (2), 104-111.

5.Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель-Участник-Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.

6.Тагаев, Х., & Алибаев, Т. Ч. (2017). РОТАЦИОННОЕ ОРУДИЕ (КАТОК-ФРЕЗА) ДЛЯ ПРЕДПОСЕВНОГО УНИЧТОЖЕНИЯ СОРНЯКОВ ПО ВОДЕ. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 1232-1238).

7.Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Юсупов, К. Я., & Эргашев, Х. (2016). О МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО ПОЛИТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1678-1681).

8.Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).

9.Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

10.Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низомов, Ш. Ш., & Юсупов, М. М. (2015). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТРУДА. *Н-34 Научно-практические основы устойчивого ведения аграрного*, 217.

11.Тагаев, Х., Оришев, Ж. Б., & Юсупов, М. М. (2015). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА В МУНИЦИПАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ АПК В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. In *ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АРИДНЫХ ЭКОСИСТЕМ* (pp. 187-189).

12.Тагаев, Х., & Эшанкулов, Х. М. (2015). РАЦИОНАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТОЙ

СТУДЕНТОВ. In *INTERPERSONAL MECHANISMS OF KNOWLEDGE AND EXPERIENCE TRANSFER IN THE PROCESS OF PUBLIC RELATIONS DEVELOPMENT* (pp. 40-43).

13. Тагаев, Х., Эргашева, С. Т., Ахмедова, Г. М., & Юсупов, М. (2016). Повышение качества образования и подготовки кадров апк в современных условиях. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1780-1782).

14. Тагаев, Х., & Игамбердиев, Х. Х. (2019). Формирование у студентов изобретательских умений в политехническом образовании. Проблемы архитектуры и строительства. *Проблемы архитектуры и строительства*. Научно-технический журнал. Самарканд, (2).

15. Тагаев, Х. И. Т., & Исмаилов, Т. (1992). Совершенствование профориентационной подготовки в условиях обучения без отрыва от производства «Проблемы подготовки специалистов по профориентации в педвузе» Материалы Международная научно-практическая конференции.

16. Тагаев, Х. (2007). Механический способ уничтожения тростника обыкновенного в рисовых чеках. Материалы Международной научно-практической конференции, часть 2, Ташкент-2007г.

17. Тагаев, Х., & Толипов, У. К. (1993). Педагогические основы совершенствования творческой личности. М.: *Ротапринт ИСО РАО*, 14.

18. Tog`aev X. To`garak a`zolari faoliyatini rag`batlantirishda pedagog mahoratining o`rni. "Yoshlarni o`qishi va bandligi muammolari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2010 y. SamDU. 24-dekabr, 147-150-bet.

19. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

20. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.

21. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)

22. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)



23.Orishev, J., & Оришева, З. (2021). "METROLOGIK O'LCHOVLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH . *Физико-технологического образования, 2(2)*.

24.Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник", 1(1)*.

25.Убайдуллаев, С., Алибоев, Т.Ч., & Оришев, Ж. Б. (2020). МАТЕРИАЛЛАРНИ КЕСИБ ИШЛАШ АСБОБЛАР ВА ДАСТГОҲЛАР ФАНИДАН АМАЛИЙ-ЛАБОРОТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСЛУЛАРИ .*Научное знание современности, (11), 26-29*.

26.Алибоев, Т., Оришев, Ж., & Орипова, Ф. (2016). РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКОЕ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1681-1683).

27.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука, (43-2), 70-72*

28.Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. (2017). ГАРАНТИИ ВНЕДРЕНИЯ НОВОЙ ТЕХНИКИ ПО ЭКСПЛУАТАЦИОННИМ ПАКАЗАТЕЛЯМ. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 1242-1245).

29.Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука, (20-3), 62-63*.

30.Низомов, Ш., & Оришев, Ж. Б. (2020). МЕТАЛЛАРНИНГ ХОССАЛАРИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Научное знание современности, (2), 48-52*.

31.Тагаев, Х., Оришев, Ж. Б., & Юсупов, М. М. (2015). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА В МУНИЦИПАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ АПК В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. In *ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АРИДНЫХ ЭКОСИСТЕМ* (pp. 187-189).

32.Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

33.Orishev, J. (2020). Ёшларни касбга йўналтиришда шарқона қарашлар ва педагогик масалалар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

34.Orishev, J. (2020). The use of information and communication technologies in the educational process. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

35.Orishev, J. (2020). Criteria for assessing practical work in higher education. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

36.Orishev, J. (2020). The main stages of Project Education. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

37.Orishev, J. (2020). Роль информационных технологии в подготовке будущих учителей технологического образования. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

38. Честных Ю.Н. “Открыт человека”. М., “Просвещение”. 1991г.

39. Богоявленский Д.Н. Психология усвоения знаний в школе – Москва.